XALQ DEPUTATLARI OLTIARIQ TUMAN KENGASHI

Q A R O R I

150200, Oltiariq t., Mustaqillik k., 90-uy, tel: (73) 432-06-93

2022 - yil 9 - dekabr VI-53-179-11-151-K/22 Oltiariq tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasining “ Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi “Geografik ob’yektlarning nomlarini tartibga solish chora tadbirlari haqida”gi 295-sonli qaroriga asosan, Oltiariq tumanidagi ziyoratgohlarga nom berish va davlat reyestriga kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi “Geografik ob’yektlarning nomlarini tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qaroriga, viloyat hokimining 2020-yil 14-noyabrdagi 304-qarorlarini ijrosini ta’minlash maqsadida tumanda amaldagi qonun talablariga zid bo‘lgan holatlarni bartaraf etish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar belgilanib amalga oshirilmoqda, ya’ni tumandagi mavjud ziyoratgohlarni Kadastr agentligining Oltiariq tuman bo‘limi bilan tahliliy o‘rganilmoqda. Ziyoratgohlar nomini milliy g‘oyamiz va mafkuramiz talablari asosida qayta nomlash, jumladan joylarning qadimiy nomlarini tiklash yuzasidan tushgan takliflar ko‘rib chiqildi. Mazkur takliflar atroflicha muhokama qilinib, geografik ob’yektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi tomonidan geografik ob’yektlarni nomlash to‘g‘risida takliflar bildirildi. Yuqoridagilarni inobatga olib O‘zbekiston Respublikasi “Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi “Geografik ob’yektlarning nomlarini tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli hamda Oltiariq tuman hokimi maslahatchisi M.Axmedovning 1658-sonli xati va O‘zbekiston Respublikasi ”Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 24-moddasiga asosan Xalq deputatlari Oltiariq tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 16-oktyabrdagi “Geografik ob’yektlarning nomlarini tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qaroriga asosan Oltiariq tumanidagi ziyoratgohlarga nom berilishi borasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tuman hokimining maslahatchisi M.Axmedov axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Farg‘ona viloyati Oltiariq tuman bo‘yicha nomi Davlat reyestri bazasida

mavjud bo‘lmagan ziyoratgohlar 1-ilovaga asosan Davlat reyestriga kiritilsin.

3. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya bo‘yicha doimiy komissiya raisi (U.Qodirova) hamda tuman hokimining maslahatchisi M.Axmedov zimmasiga yuklatilsin.

4. Qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Xalq deputatlari Oltiariq tumani kengashi raisi **Sh.Turdaliyev**

Xalq deputatlari Oltiariq tuman Kengashining
2022 yil 9 dekabrdagi
VI-53-179-11-151-K/22-son qaroriga
1-ilova

Farg’ona viloyati Oltiariq tumanidagi ziyoratgohlar to’g’risida

MA’LUMOT

№	Nomlanishi	Manzili	Tarixiy ilmiy asosi
1	“Bobo Qambar” ziyoratgohi	Oltiariq tumani Ustoz MFY, Tabassum ko’chasi	Bobo Qambar ziyoratgohi Oltiariq tumani Fayziobod qishlog’ida joylashgan bo’lib, Oq ota mozorida ikkita ziyoratgoh mavjud. Bular Hazrati Bobo Qambar va Bobo Ahtam mozorlaridir. Oq ota mozoridagi birinchi ziyoratgoh Bobo Qambar mozori hisoblanadi. Aytishlaricha, bu yerga Hazrat Alining otboqari Haxrat Bobo Qambar (Qanbar ota, Qambar soxoba ham deb ataladi) dafn etilgan. Bobo Qambar Hazrat Alining otboqari bo’lib, sadoqatli va muxabbati bilan mashxur bo’lgan. Seydi Ali Raisning “Mir’otul mamolik” kitobida bayon etilishicha, Hazrat Murtazo Alining otboqari Qanbar Ali ham Ko’fa shahrida dafn etilgan bo’lib, musolmonlarning ziyoratgohlaridan hisoblanadi. Islom dunyosida Hazrat Alining mashxurligi Bobo Qambarning ham dovrug’ini keng tarqalishiga sabab bo’lgan.SHu sababdan Qambar ota bilan bog’liq ziyoratgohlar ham Hazrat Ali ziyoratgohlaridek ko’plab uchraydi. Turklar Bobo Qambarni otboqarlarning homiysi deb bilsalar, qirg’iz va uyg’urlar yilqichilikning homiysi sifatida qaraganlar. Turkmanlar bo’lsa, Bobo Qambar kuychi va qo’shiqchilarning homiysi deb hisoblashganlar. Ziyoratgoh ta’mirdan chiqarilgan. Ziyorat qiluvchilar uchun barcha sharoitlar mavjud.

2	“Bobo Axtam” ziyoratgohi	Oltiariq tumani Ustoz MFY, Tabassum ko’chasi	Bobo Axtam ziyoratgohi Oltiariq tumani Fayziobod qishlog’ida joylashgan bo’lib, Oq ota mozorida ikkita ziyoratgoh mavjud. Bular Hazrati Bobo Qambar va Bobo Ahtam mozorlaridir. Oq ota mozoridagi ikkinchi ziyoratgoh Bobo Ahtam mozoridir. Ushbu ziyoratgohni ikkinchi nomi Oq ota mozoridir. Ushbu mozor o’zida masjid va mozorni mujassam qilib, gumbazli shaklda qurilgan. Bu mozorni sahoba Bobo Ahtamning qadamjoyi degan taxminlar ham bor. Mozor 1965-1968 yillarda qayta ta’mirlangan. “Miri Ahtam qissasi”da Bobo Ahtam Hazrati Muhammad alayhissalomning qarindoshi sahobalaridan biri ekanligi aytilgan. ***(1-Amiri Ahtam qissasi. Ibrohim Adham qissasi. Toshkent: yozuvchi, 1991, 96-bet. 2-Bo’riev O. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo. Toshkent :O’zbekiston, 1997, 151-bet)*** Ziyoratgoh ta’mirdan chiqarilgan. Ziyorat qiluvchilar uchun barcha sharoitlar mavjud.
3	“Do’sti Xudo Pirim” ziyoratgohi	Oltiariq tumani Zilol MFY, Paxtaobod ko’chasi	Do’sti Xudo Pirim ziyoratgohi Oltiariq tumanining Bo’rbonliq qishlog’ida joylashgan. Do’sti Xudo hazratlarining asl ismi Atoulloh bo’lib, Maschoh yurtidan bo’lgan. Do’sti Xudo Temuriylar va undan keyingi davrlarda Farg’ona vodiysining shimoliy xududidagi Kosonshahrida tug’ilib, keyinchalik XV asrning oxiri XVI asrning birinchi yarmida Temuriylar va SHayboniylar davlatining siyosiy tarixida muhim o’rin tutgan Axmad Jaloliddin Kosoniy Hazrati Maxdumi A’zam (1461-1542)ning farzandi bo’lib, ul zot xirotlik bo’lmaganligi ma’lum bo’lgan. Xoja Do’st Do’sti Xudoning aynan o’zidir. U taxminan hijriy 900 yilda tavallud topgan va otasining vafotidan so’ng Farg’ona vodiysiga kelib, Naqshbandiya tariqatining raxnomalaridan biri bo’lib, ko’p vaqt pirlik taxtida o’tirgan. Do’sti Xudo mozorining yonida xuddi shu nom bilan ataluvchi masjid bo’lib, mazkur masjid 1906 yili shu yerlik SHerali eshon buyurtmasiga ko’ra qurilgan. ***(Kattaev K. Ko’rsatilgan asar, 33-bet., Azimov I. Farg’ona vodiysining arxitektura yodgorliklari. Toshkent: O’zbekiston, 1986, 43-bet)*** Ziyoratgohda barcha ziyorat qiluvchilar uchun sharoitlar mavjud.

4	“Moyko’l buva” ziyoratgohi	Oltiariq tumani Oqbo’yra MFY, Oqbo’yra ko’chasi	Moyko’l buva ziyoratgohi Oltiariq tumani Oqbo’yra qishlog’i markazidan 600 metrlar shimolda joylashgan. Oddiy xalq tilida Mo’yka buva, Mo’ka buva ham deyiladi. Bir mahallar bu yerdagi buloq o’rnida kattagina ko’l bo’lgani, suvning usti moydek yiltirab turgani uchun uni “Moyko’l” buva deyishganligi haqida taxminlar bor. Juranlist Baxodirjon SHokirovning yozishicha, Mo’yka buvaning asl ismi Mo’yikoh bo’lib, “Sariq saqol” ma’nosini bildiradi. Afsonalarga ko’ra, Moyka buva Sadkak buva hamda Oqmozor buva bilan birodar bo’lgan emish. Ba’zilar ularni yetti birodar bo’lganliklarini ta’kidlaydilar. Emishki, bu yetti avliyoga Alloh tomonidan yetti xil ofatga qarshi qalqon balogardon bo’lish mas’uliyati ilohiy tarzda yuklangan ekan. Mo’yikoh buva mozorining oldida avvallari buloq bo’lib, u kishi xassasini yerga tiqqan zamon otilib chiqqan ekan. Odamlar bu buloq suvini turli kasalliklarga, jumladan, quloq va tomoq og’rig’iga davo sifatida ichganlar. Tadqiqotchilar moy so’zi bilan yasalgan joy nomlarini neft’ bilan aloqador deb o’ylaydilar. Masalan H.Xasaanov Moyli suv joy nomi neft’ konining alomati deb hisoblaydi. ***(1-Xasanov H. Markaziy Osiyo joy nomlari tarixi. Toshkent: FAN, 1965, 18-bet).*** Ziyoratgohda Moyko’l buvaning qabri bor. Ziyoratgoh to’liq ta’mirlangan. Ziyorat qiluvchilar uchun barcha sharoitlar mavjud.
5	“Umoch buva” ziyoratgohi	Oltiariq tumani Toshobod MFY, Umoch buva ko’chasi	Umoch buva ziyoratgohi Oltiariq tumani Povulg’on qishlog’ida joylashgan. Ushbu ziyoratgoh haqida Anvar Obidjon shunday fikr bildiradi: Umoch otani “Omochchi ota” so’zi bilan bog’lashga ham urinishgan. Aytishlaricha, qadimzamonda Povulg’on qishlog’idan ancha chetdagi ovloq joyda tuni-kun sajdadan bosh ko’tarmaydigan avliyo sifat bir kimsa paydo bo’lib, o’ziga kapa tikibdi. Toshloq yerdan kichik buloq chiqib, atrofiga ekilgan nihollar barq urib o’sayotgani kishilarni hayratga solibdi. Bu xudojo’y kimsaning bir-ikki tanob bug’doyzori ham bo’lar ekan. SHu bug’doylarni o’zi qo’ltegirmonda unga aylantirib, xamirchalarni sigirning sutiga qo’shib qaynatib, nuqul umoch bilan tamaddilanar ekan. SHu boisdan uni Umoch ota deb atagan ekanlar. CHiltonlar qadam joyini keyinchalik Umoch ota ismli solih bir zot obod qilganligi uchun ziyoratgoh ham uning nomi bilan atalgan ekan.

6	“Sertut buva” ziyoratgohi	Oltiariq tumani Sertut MFY, Ziyoratgoh ko’chasi	Sertut buva ziyoratgohi Oltiariq tumani Jo’rak qishlog’ida joylashgan. Sertut buvaning asl ismi Xoja Abdullox Ansoriy bo’lib, Farg’ona vodiysiga bundan ming yil muqaddam kelgan ekan. Abdurahmon Jomiyning “Nafohatul uns” kitobida keltirilishicha, Abdulloh Ansoriy zamonasining mashhur shayxlaridan bo’lib, she’riyat bobida ham zamonasining mashhur shoiri bo’lgan. Uning to’liq ismi Abu Ismoil Abdulloh ibn Abu Mansur Muhammad al-Ansoriy al-Hiraviydir. Abdulloh Ansoriy 1006 yili Ko’handiz shahrida tavallud topib, umrining oxirigacha Hirot shahrida darveshona umr kechirgan. U 1075 yilda vafot etgach, Hirotning Gazurgoh mavzesida dafn etilgan. Aytishlaricha qish kunlarining birida SHaximardon pirim, SHaftoli buva azizlar Xoja Abdulloh Ansoriy huzuriga kelibdilar. Biroq Xoja Abdulloh Ansoriyni mehmonlar oldidagi dasturxonga qo’ygani xech narsani yo’q ekan. SHunda Xudoga iltijo qilib “Yo parvardigor, meni sharmanda qilma, dasturxonimga o’zing ne’matlardan ato et” deb iltijo qilibdi. SHunda dasturxonda bir lagan tut paydo bo’libdi. Azizlar tovoqdagi tutni tanovul qilishgach, “Iloyo, bu joy sertut bo’lsin” deb duo qilishibdi. O’shandan beri qishloq nomi Sertut deb ataladigan bo’libdi. “Sertut Farg’ona viloyati, Oltiariq rayonidagi qishloq. Sertut qishlog’i o’tmishda o’ziga yarasha balx, marvatak kabi shirin-shakar mevali tutlarga boy, soya-salqin, ko’rkam joy bo’lgan. Sertut-“tut daraxti ko’p o’sgan joydagi qishloq” ma’nosidadir. ***(Oxunov N. Joy nomlari ta’biri. O’zbekiston.1994. 45-bet. O’sha asar. 711-bet. O’sha asar.45-bet)*** Ziyoratgohda barcha ziyorat qiluvchilar uchun sharoitga ega.
7	“Zurayk momo” ziyoratgohi	Oltiariq tumani Bo’ston MFY, Ziyrak momo ko’chasi	Zurayk momo ziyoratgohi Oltiariq tumani markazidan 5-6 km uzoqlikda,shu nom bilan ataluvchi Zurayk momo qishlog’ida joylashgan. Yerli aholi uni Zuray momo, Zurayk momo, ba’zilar Ziyrak momo, Zirokoy momo ham deyishadi. “Qadimda ayollar ismini turli taqinchoq va bezaklar bilan atash hollari uchrab turgan (masalan: Uzukxon, Popukxon, Oybaldoq, Tasmaxon kabilar). SHuni nazarda tutsak hamda bu ziyoratgoh o’lkamizga islom dini yoyilishidan ancha ilgari ham mavjud bo’lganligini inobatga olsak, “Zirak” haqiqatga eng yaqinidir. Hozirda vaqtlar o’tib, Zurayk momo nomi bilan yuritilib kelinmoqda. Zurayk momo ziyoratgohi arxeologik yodgorlikda joylashgan bo’lib, maydoni 160x120 m, balandligi 2 m. Janubiy-g’arbiy hududda 4 m balandlikdagi tepalik mavjud. Birinchi marta Zurayk momo yodgorligi 1973 yilda N.G.Gorbunova tomonidan Farg’ona viloyatidagi arxeologik yodgorliklar xaritasini tuzish maqsadida tekshirib ko’rilgan. ***(1. Gorbunova N.G.otchet o rabote Ferganskoy ekspeditsii v 1973 godu. Arxiv oblastnogo muzeya №418. 2. Ivanova G.P. O’zbekistonda arxeologik tadqiqotlar. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002, 64-bet)*** Ziyoratgohda barcha ziyorat qiluvchilar uchun sharoitga ega.

8	“Valixonto’ra” ziyoratgohi	Oltiariq tumani Istiqlol MFY, Tiklanish ko’chasi	Valixonto’ra Sayyid Abdullaxon xojaning Rahmatullohxon xoja ismli o’g’li avlodidan bo’lib, 1864-1950 yillarda yashab o’tgan. Oltiariq tumanining Eskiarab qishlog’iga dafn etilgan. Hozirda saqlanayotgan shajarada, jumladan, shunday deyiladi: “Uch birodarlari Xoja Karomatullohdurlar. Alarning farzandlari Muhammad Odil Podshohdurlar, Sayyid Ofoqxojamga domod bo’ladurlar. Bularning farzandi arjumandlari Eshon Sayyid Abdulloh xojam qutb ul aqtob Sayyid avliyodurlar. Alarning farzandi arjumandlari Muhammad Sayyidxon xojam. Bu shajarai sharif Muhammad Sayyid Xojamni shajaralaridur” deyilgan. Valixonto’ra vafot etgach, halq uni shu qishloqqa dafn etishlarini farzandlaridan iltimos qilganlar. Ziyoratgohda barcha ziyorat qiluvchilar uchun sharoitga ega.
9	“Sarimsoq xo’ja avliyo” ziyoratgohi	Oltiariq tumani Qo’rg’oncha MFY, Adolat yo’li ko’chasi	“Sarimsoq xo’ja avliyo” ziyoratgohi (Xonaqoh aziz buva mozori) Oltiariq tumani Eskiarab qishlog’ida joylashgan bo’lib, kelib chiqish tarixi 17 asrdan boshlanadi. Hozirda mahalliy aholi tomonidan Xonaqoh aziz buva mozori, Sarimsoq xo’ja avliyo nomi bilan yuritilib kelinmoqda. Aytishlaricha, kunlardan bir kuni dalada dehqonchilik bilan mashg’ul bo’lgan dexqonlar oldiga bir mo’ysafid chol kelib: “SHu yerga bir xonaqox ko’tarsangizlar soz bo’lar edi” deb, bu ishning uddasidan kim chiqa olishini so’rabdi. Dehqonlar bu ishni faqat Avliyo buva qilishi mumkinligini aytishibdi va mo’ysafidning oldiga Avliyo buvani olib kelishibdi. Haligi mo’ysafid chol Avliyo buvaga “Siz bu yerga xonaqoh qurdiring. Keyinchalik shu yerga sizni dafn qilishadi. Siz shu joyning tarbiyat qiluvchi valiylaridan bo’lasiz”, deb duo qilib, ko’zdan g’oyib bo’libdi. Barcha bu Hazrati Xizr ekanligini bilishibdi. SHundan keyin Avliy buva xonaqoh quribdi va shu yerga dafn qilishibdi. Ziyoratgohda barcha ziyorat qiluvchilar uchun sharoitga ega.

10	“Devona buva” ziyoratgohi	Oltiariq tumani Oqbo’yra MFY, Oqbo’yra ko’chasi	Devona buva ziyoratgohi Oltiariq tumani Oqbo’yra qishlog’i markazidan 400 metrlar chamasi g’arb tomonda, katta magistral yo’l chetida joylashgan Devona buva mozori ham tabarruk ziyoratgohlaridan biri hisoblanadi. Devona buvaning asl ismi ma’lum emas. U tariqat ilmini egallagan, oila, nikoh va dunyo ne’matlaridan voz kechgan, zoxidlarcha kun kechirgan, umrini Allox ishqi va riyozatga bag’ishlagan inson bo’lgan. Egnida xirqa, boshiga kulox kiyib, faqironi yashagan. Bu qadamjoy ham qishloq ahli tomonidan muqaddas joy sifatida ziyorat qilinib kelinadi. 1995 yilda qadamjoy ustida yangi mozor qurilgan. Mozorning old tomonidan Devona buva jasadi dafn etilganligini qishloq ahli juda yaxshi biladi. Mozorning old tomonida muqaddas hovuz bor. Qishloq aholisi orasida “Oqbo’yra” atamasining kelib chiqish tarixi Devona buva bilan bog’liq ekanligi to’g’risida turli afsona va rivoyatlar yuradi. Afsonalarga ko’ra qishloqning “Oqbo’yra” deb nomlanishida Devona buvaning qadimda qishloqni kesib o’tgan yo’l chetida bo’yradan chala qurib yashaganligi, qishloq ahlining bo’yra tshqish bilan shug’ullangani va turmushda undan keng foydalanganliklari ta’kidlanadi.
11	“Mirosh ota” ziyoratgohi	Oltiariq tumani Oqbo’yra MFY, Oqbo’yra ko’chasi	Mirosh ota ziyoratgohi Oltiariq tumani Oqbo’yra qishlog’ida joylashgan. Rivoyat qilinishicha, Mirosh ota oshpazlarning piri bo’lgan ekan. Turkiyda “osh” so’zi faqat “palov emas” “ovqat” ma’nosini ham anglatadi. Ismi “Ovqatlar amiri” mazmunini anglatuvchi Mirosh ota elning qaysi yig’iniga bormasin, qaysi saylida ishtirok etmasin, dosh-qozonlarda pishiriladigan ovqatlarga “Bismilloxir Rahmonir Roxiym” deya tuz tashlab berar ekan va bu ovqatlar o’ta mazali bo’larkan. Elning to’y-ma’rakalaridagi katta oshlarni pishirishga Mirosh otaning fotihasini olgan oshpazlar sulolasi yoki ularning shogirdlarigina xaqli bo’lishgan ekan. Mirosh ota (xalq uni Mirosh dada deb ham ataydi) ziyoratgohida to’rta sag’ana joylashgan bo’lib, ularda Mirosh ota (asl ismi G’oyib ota), uning o’g’illari Isxoqjon buva, nabiralari Abduraxmon ota, Oyixon bibi, kelinlari Tojixon enalar dafn qilingan. Mirosh ota 17 yoo’ida Buxoroga borib, u yerda Naqshbandiya tariqatini qabul qilgan va Buxoro madrasalaridan birida tahsil olgan. Bahovuddin Naqshbandini pir tutgan. Qur’on, Hadis, tafsir, ilmi naxv, ilmi g’oyib, ilmi nazar, ilmi ishroq, shariat va tilshunoslik ilmlarining bilimdoni bo’lib yetishgan. Mirosh ota yetti tilni bilgan deyiladi.

12	“Ko’k tilli ota” ziyoratgohi	Oltiariq tumani Muqumiy MFY, Mozortagi ko’chasi	Ko’k tilli yoxud Ko’k to’nli ota mozori ziyoratgohi Oltiariq tumani Poloson qishlog’ida joylashgan. Mozorni “Ko’k tilli ota”, “Ko’k to’nli ota” deb ham yuritishadi. Ko’k tilli deb yuritilganligining sabablarida biri yo’talgan chalingan bolalarga shu mozorning tuprog’idan yalatishgan va shu bois Ko’k tilli ota mozori deb yuritilgan. Ko’k tilli ota yetti aka-uka bo’lishgan ekan. Ular lashkarboshi bo’lib, xalq ozodligi uchun kurashishgan degan rivoyatlar ham bor. Farg’ona vodiysida Ko’k to’nli va Ko’k mozor deb ataluvchi bir necha ziyoratgohlar bor. “Ko’k tilli ota” mozorining qachon barpo etilgani haqida taxminlar bor xolos. Bu yerda yo’l tomonga qarab turgan gumbazli, ko’k sirli, ko’k eshikli mozor bo’lgan deb eslashadi. Mozor xududida bir tup chilonjiyda bo’lib, u hozirda ham ko’m-ko’k bo’lib o’sib turadi. CHilonjiydani yoshini 2-3 asrdan ortiq hisoblashadi. U mozor qurilganida ekilgan bo’lsa, mozor bunyod etilganiga ham shuncha muddatdan ortiqroq vaqt bo’limi mumkin.